

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI VA YANGI KASBLAR

Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri keng qamrovda yoritilgan. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va platforma iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida ish o'rinlarining qisqarishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi jarayonlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Jahon miqyosidagi statistik ma'lumotlar va prognozlar asosida global tendensiyalar ochib berilgan, shuningdek O'zbekiston misolida raqamli transformatsiyaning mahalliy mehnat bozoriga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Yangi kasb va rollar — sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassis, ma'lumotlar tahlilchisi, kibermuhandis, raqamli mahsulot menejeri va boshqa zamonaviy yo'nalishlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot xulosalari davlat siyosati, ta'lim tizimi va ish beruvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror bandlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, platforma iqtisodiyoti, yangi kasblar, reskilling, O'zbekiston

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается влияние цифровой экономики на рынок труда. Анализируются процессы сокращения рабочих мест и появления новых профессий под воздействием развития искусственного интеллекта, автоматизации и платформенной экономики. На основе мировых статистических данных и прогнозов раскрываются глобальные тенденции, а также показано влияние цифровой трансформации на рынок труда Узбекистана. Особое внимание уделено новым профессиям и ролям — специалисту по искусственному интеллекту, аналитикам данных, инженерам по кибербезопасности, менеджерам цифровых продуктов и другим современным направлениям. Кроме того, предложены рекомендации по переподготовке кадров и формированию современных навыков. Выводы исследования имеют практическую значимость для государственной политики, системы образования и работодателей, обеспечивая устойчивую занятость в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, рынок труда, искусственный интеллект, автоматизация, платформенная экономика, новые профессии, переквалификация, Узбекистан

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the impact of the digital economy on the labor market. It examines the processes of job displacement and the emergence of new professions driven by artificial intelligence, automation, and the platform economy. Drawing on global statistical data and forecasts, the study

highlights worldwide trends and demonstrates the effects of digital transformation on Uzbekistan's labor market. Special attention is given to emerging roles such as AI specialists, data analysts, cybersecurity engineers, digital product managers, and other modern occupations. The article also presents recommendations for workforce reskilling and the development of future-oriented skills. The findings are practically relevant for public policy, the education system, and employers, contributing to sustainable employment in the era of the digital economy.

Keywords: digital economy, labor market, artificial intelligence, automation, platform economy, new occupations, reskilling, Uzbekistan

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini ham tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, platforma iqtisodiyoti va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozori tarkibida yangi jarayonlar kuzatilmoqda. Bir tomondan, an'anaviy ish o'rinlari qisqarib bormoqda, ikkinchi tomondan esa ilgari mavjud bo'lmagan kasblar va mutaxassisliklar shakllanmoqda. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) "Future of Jobs" 2025 hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2030-yilgacha 170 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi, biroq shu davrda 92 millionga yaqin rollar qisqarishi kutilmoqda. Demak, global miqyosda sof ijobiy balans — 78 million ish o'ri shakllanishi mumkin. Bu raqamlar raqamli transformatsiyaning ko'lamini yaqqol namoyish etadi.

Mazkur o'zgarishlar nafaqat texnik mutaxassisliklarga, balki barcha sohalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda zamonaviy mutaxassisdan faqat texnik bilim emas, balki "yumshoq ko'nikmalar" — ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil, tezkor qaror qabul qilish, jamoada ishlash va moslashuvchanlik ham talab etilmoqda. OECD'ning Employment Outlook 2023 hisobotida qayd etilishicha, 2030-yilga borib mehnat bozorida zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarning qariyb 39 foizi yangilanadi. Bu esa ta'lim tizimi va ish beruvchilar oldiga xodimlarni qayta tayyorlash (reskilling) va malakasini oshirish (upskilling) bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda.

O'zbekiston kontekstida ham raqamli iqtisodiyotning ta'siri tobora ortib bormoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida elektron hukumat tizimi, IT Park rezidentlari, raqamli xizmatlar eksporti va startap ekotizimining rivojlanishi milliy mehnat bozorida yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, dasturiy ta'minot ishlab chiqish, ma'lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik sohalarida mutaxassislarga ehtiyoj oshmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini zamonaviy kasblar talablari bilan uyg'unlashtirishi, yoshlarni innovatsion g'oyalarga tayyorlashi va ularga xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini berishi zarur.

Shunday qilib, ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, yangi kasblar va ularga bo'lgan talab ko'rsatib beriladi hamda O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlarining istiqbollari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, kadrlarni qayta

tayyorlash mexanizmlari va zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.¹

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiy forumining Future of Jobs 2025 hisobotida 2030 yilgacha 170 mln yangi ish o‘rni yaratilishi va 92 mln rol qisqarishi kutilayotgani, ya’ni sof ijobiy balans yuzaga kelishi ta’kidlanadi; shu bilan birga, 2030 yilga borib mehnat bozorida talab qilinadigan asliy ko‘nikmalarning 39% o‘zgaradi. Bu o‘zgarishda AI, ma’lumotlar va kiberxavfsizlik ko‘nikmalari eng tez o‘svuchi yo‘nalishlar sifatida qayd etiladi.

OECD’ning Employment Outlook 2023 nashri AI va avtomatlashtirishning ish joylariga ijobiy-salbiy aralash ta’sirini ko‘rsatadi: takroriy vazifalar avtomatlashtirilgan sari samaradorlik ortadi, ammo ko‘nikmalarni yangilash zarurati keskin kuchayadi; barcha toifadagi xodimlar — past malakali va yuqori malakali — uchun ham doimiy o‘qitish shart.²

ILO va boshqa manbalar platforma iqtisodiyoti (onlayn va lokatsiya-asosli platformalar)ning tez kengayayotganini, lekin “odobli mehnat” standartlarini ta’minlash, bandlik barqarorligi va ijtimoiy himoya masalalarini yechish zarurligini ta’kidlaydi.³

G.F.Ismoilovning “The role of information to develop marketing” maqolasida marketing rivojlantirishda ma’lumotlarning o‘rni haqida gap boradi. Barcha ma’lumotlarni raqamlashtirish, ulardan foydalanishni yanada qulaylashtirdi va o‘z o‘zidan yangi kasblar yaratilishiga sabab bo‘ldi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni nazariy jihatdan izohlar ekan, iqtisodchilar texnologik taraqqiyot doimo “kompensatsion mexanizm”ni ishga solishini ta’kidlaydilar. Ya’ni, ayrim ish turlari avtomatlashtirish natijasida qisqarganida, boshqa sohalarda yangi xizmat va mahsulotlar paydo bo‘lib, ularni bajarish uchun yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Hozirgi bosqichda bu jarayon yanada tezlashmoqda, chunki platforma iqtisodiyoti, bulutli xizmatlar va API asosidagi ekotizimlar yangi kasblarni tezda tarqatish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ko‘plab kasblar butunlay yo‘qolmaydi, balki ularning ichidagi vazifalar qayta taqsimlanadi: inson uchun ijodiy va ijtimoiy muloqotga oid faoliyat saqlanib qoladi, takroriy jarayonlar esa sun’iy intellekt yoki robotlarga o‘tadi.

¹ World Economic Forum

² OECD

³ International Labour Organization



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot va yangi kasblar bo'yicha ish o'rinlari prognozi¹

Jahon miqyosidagi statistik ko'rsatkichlar bu o'zgarishlarni yanada ravshan ko'rsatmoqda. Jahon iqtisodiy forumi hisobotiga ko'ra, 2030 yilgacha dunyo bo'yicha 170 milliondan ortiq yangi ish o'ri ni paydo bo'lishi, shu bilan birga 92 million rol qisqarishi kutilmoqda. Demak, sof natijada 78 million ijobiy balans yuzaga keladi. Bunday o'zgarishlar ko'proq qishloq xo'jaligi, logistika, dasturiy ta'minot, qurilish va chakana savdo kabi sohalarda kuzatiladi. Shu davrda ish beruvchilar talab qilinadigan asosiy ko'nikmalarning 39 foizi yangilanadi, eng tez o'suvchi yo'nalishlar sifatida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan ishlash, kiberxavfsizlik hamda texnologik savodxonlik alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va moslashuvchanlik kabi yumshoq ko'nikmalar ham yuksak qadrlanadi.

Platforma iqtisodiyoti ham mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn va lokatsiya asosida faoliyat yurituvchi platformalar bandlikning muhim qismiga aylanmoqda. Biroq bu yo'nalishda mehnat standartlarini saqlash, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va barqaror daromadga ega bo'lishi kabi muammolar ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar ushbu sohaga oid me'yorlarni yangilash, algoritmik boshqaruv jarayonlarini shaffof qilish va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish zarurligini ta'kidlamoqda.


O'zbekiston kontekstida ham raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri sezilmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan raqamli infratuzilmani kengaytirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, sun'iy intellekt siyosatini ishlab chiqish va normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirildi. Bu yo'nalishdagi islohotlar, xususan, 2024–2025 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritalari O'zbekistonda IT xizmatlari eksportini oshirishga, yoshlar uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga va yangi kasblar paydo bo'lishiga turtki bermoqda.

¹ Muallif ishlanmasi

Raqamli infratuzilmaning kengayishi IT mutaxassislariga, dasturchilarga, ma'lumotlar tahlilchilari va kiberxavfsizlik bo'yicha ekspertlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Agar ta'lim va qayta tayyorlash dasturlari yetarlicha qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, mamlakatda yuqori qo'shimcha qiymatli kasblarda mahalliy kadrlar ulushi ortadi.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha eng ko'p o'sayotgan yangi kasblar orasida sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish mutaxassislari, ma'lumotlar muhandislari va tahlilchilari, kiberxavfsizlik mutaxassislari, raqamli mahsulot menejerlari hamda prompt-muhandislar bor. Shuningdek, bulut arxitektoralari, DevOps mutaxassislari, AR/VR dizaynerlari va raqamli ta'lim dizaynerlari, barqarorlik va ESG ko'rsatkichlari bo'yicha tahlilchilar ham yuqori talabga ega bo'lishi kutilmoqda.

Mehnat bozoridagi ushbu o'zgarishlarga moslashish uchun qayta ko'nikma hosil qilish (reskilling) strategiyalari alohida ahamiyatga ega. Ta'lim tizimi darajasida o'quv rejalarga sun'iy intellekt asoslari, ma'lumotlar tahlili, kiberhigiyena va murakkab muammolarni yechish modullarini kiritish lozim. Ish beruvchilar esa xodimlar uchun ichki o'quv dasturlarini yo'lga qo'yishi, qisqa muddatli sertifikatlar beruvchi dasturlarni qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir. Davlat esa platforma mehnatini tartibga soluvchi normalarni modernizatsiya qilib, ijtimoiy himoya tizimlarini raqamli bandlik bilan uyg'unlashtirishi zarur. O'zbekiston sharoitida IT Park va universitet-sanoat hamkorliklari asosida yoshlarni malakali kadr sifatida tayyorlash, startaplarni davlat xaridlari jarayonlariga jalb qilish kabi mexanizmlar samarali natija beradi.



2-rasm. Raqamli iqtisodiyotda talab yuqori bo'lgan yangi ish o'rinlari taqsimoti¹

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi bilan birga, malaka tafovutlari muammosini ham yuzaga keltirmoqda. Jahon banki va ILO tadqiqotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ko'plab ishchilar zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash ko'nikmalariga ega emas.

¹ Muallif ishlanmasi

OECD hisobotlarida keltirilishicha, 2025-yilga borib Yevropadagi ishchi kuchining 40 foizidan ortig‘i doimiy ravishda qayta tayyorlash (reskilling) va malaka oshirish (upskilling) jarayonlaridan o‘tishi talab etiladi. Bu esa ta‘lim tizimlari, xususan, oliy o‘quv yurtlari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Yangi kasblar turli tasniflarga ajratilmoqda. Texnik yo‘nalishlarda sun‘iy intellekt mutaxassislari, Data engineer va kiberxavfsizlik muhandislari kabi rollar eng tez o‘sayotgan kasblar sifatida qayd etilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy va boshqaruv sohalarida raqamli marketing menejerlari, kontent dizaynerlari va onlayn ta‘lim metodistlari kabi kasblarga talab kuchaymoqda. Raqamli transformatsiyaning yana bir yo‘nalishi — yashil iqtisodiyot bilan kesishgan sohalaridir. Bu yerda ESG tahlilchilari, barqaror rivojlanish mutaxassislari va energiya samaradorligi bo‘yicha konsalting xizmatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Platforma iqtisodiyoti ham mehnat bozoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Onlayn xizmat ko‘rsatuvchi platformalar, jumladan “Yandex Go”, “Express24” yoki “MyTaxi” kabi ilovalar O‘zbekistonda ko‘plab vaqtinchalik bandlik imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq bu turdagi mehnat faoliyatida ijtimoiy himoya mexanizmlarining yo‘qligi, daromadning barqaror emasligi va algoritmik boshqaruvning shaffof emasligi kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri platforma mehnatini tartibga solish, xodimlar uchun minimal kafolatlarni belgilash va ularni ijtimoiy sug‘urta tizimiga jalb qilishdir.

O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot bozor talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. So‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, IT Park faoliyati, xalqaro grant dasturlari va startaplarni qo‘llab-quvvatlash tashabbuslari natijasida IT va raqamli kasblarga qiziqish keskin oshdi. Kelgusida oliy ta‘lim muassasalari o‘quv rejalarga sun‘iy intellekt, ma‘lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik va raqamli savodxonlik bo‘yicha yangi fanlarni kiritishi, qisqa muddatli sertifikatlashtirish dasturlarini kengaytirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat bozorida sifat va mazmun jihatidan chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda avtomatlashtirish va sun‘iy intellektning keng joriy etilishi natijasida ayrim an’anaviy rollar qisqarmoqda, biroq bu jarayon o‘rnini yangi kasblar va innovatsion faoliyat yo‘nalishlari egallamoqda. Jahon iqtisodiy forumi prognozlariga ko‘ra, yaqin yillarda AI mutaxassislari, ma‘lumotlar tahlilchilari, kiberxavfsizlik bo‘yicha muhandislar, raqamli mahsulot menejerlari va boshqa zamonaviy kasblarga talab keskin ortadi. Shu bilan birga, ijodiy fikrlash, mantiqiy tahlil, insoniy muloqot va rahbarlik kabi yumshoq ko‘nikmalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston sharoitida bu jarayon davlat siyosati va ta‘lim tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmaning kengayishi, startaplar va IT xizmatlari eksportining oshishi, yoshlar uchun maxsus o‘quv dasturlari yaratilishi mehnat bozorida yangi imkoniyatlar ochmoqda. IT Park, universitet va sanoat hamkorliklari, xalqaro grant dasturlari orqali yoshlar raqamli ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shu bilan

birga, reskilling va upskilling dasturlarining kengaytirilishi mavjud kadrlarning yangi sharoitga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Kelgusida O'zbekistonning asosiy vazifalaridan biri — ta'lim, davlat va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, platforma iqtisodiyotiga oid me'yorlarni takomillashtirish va barqaror bandlikni ta'minlash bo'ladi. Agar mazkur yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilsa, mamlakatda raqamli iqtisodiyotga moslashgan malakali mutaxassislar ulushi ortadi, mahalliy kadrlar nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo'lishadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri muammolar bilan bir qatorda katta imkoniyatlarni ham taqdim etmoqda. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun doimiy ta'lim, moslashuvchan kadrlar siyosati va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zarur. Shu asosda O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schwab, K. (2017). To'rtinchi sanoat inqilobi. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.
3. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation? Oxford University Press.
4. Abdullayev, X. (2022). Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDIU nashriyoti.
5. Rasulov, Sh. (2021). O'zbekiston mehnat bozori va innovatsion rivojlanish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Ismoilova PhD, G. (2021). THE ROLE OF INFORMATION TO DEVELOP MARKETING. International Finance and Accounting, 2021(6), 22.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**